

6- SINIF O'QUVCHILARDA MONOLOGIK NUTQNI ESHITIB TUSHINISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA TAJIRIBA TADQIQI

Sa'dullayeva Fayyoza

Magistr: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-sinf o'quvchilarda monologik nutqni eshitib tushinish malakasini shakllantirish bo'yicha tajriba tadqiqi haqida ma'lumot beriladi. Asosan o'quvchilarning monologik matnni qay darajada tushunganliklari bayon etiladi.

Tajriba sinovi Toshkent viloyati Zangiota tumaniga qarashli 38-IDUM da olib borildi. Tajriba 5-noyabrdan boshlanib, 18-martgacha davom etdi. 6-A sinf o'quvchilari tajriba sinoviga qatnashishdi. Sinf ikki guruhga ajratilib, ular tajriba guruhi va nazorat guruhi deya ataldi. Tajriba guruhida 13 nafar, nazorat guruhida esa 13 nafar o'quvchi taqsimlandi. Tajriba sinovining birinchi darsida har ikkala guruhdan bir xil turdagi boshlang'ich nazorat ishi olindi. Mashg'ulot uchun tanlab olingan matnlar audio ko'rinishida taqdim etildi va har bir darsda ikki- uch martadan o'qib eshittirildi. Sinov davrida tajriba guruhiga eshitib tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradigan topshiriqlar berib borildi. Ular turli xil mavzudagi audio matnlar asosida yaratilgan savol va topshiriqlar, turli xil diagrammalar, jadvallardan iborat bo'lib, bu topshiriqlar o'quvchilarda eshitib tushunish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba guruhida sinov bo'layotgan bir paytda nazorat guruhi odatiy dars mashg'ulotlarini o'tashdi. Sinov yakunida har ikkala guruhdan ham bir xil nazorat ishi olindi. Tajriba davomida olingan har bir mashg'ulotlar tekshirilib, kerakli ko'rsatkichlar orqali baholanib, tahlil qilindi. Tahlil natijalari tajriba guruhining eshitib tushunish borasida sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatdi.

Tajriba ishtirokchilari.

Tajriba sinovi haqqoniy tarzda olib borilishini tashkillashtirilgan holda, jurnalning yuqori qismini tajriba sinovi guruhiga, pastki qismini nazorat guruhi uchun tanlab olindi. Tajriba guruhi 4 nafari o'g'il bolalar, 11 nafari qiz bolalarni tashkil etdi. Ularning bilim darajalari har xil.

Tajriba materiali

Biz mashg'ulotlar davomida tajriba materiali sifatida respublikamizda nashr qilinayotgan "Gulxan" bolalar jurnalining 2020-yilda nashr qilingan sonlaridan, X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridan, Turob To'laning "Yetti zog'ora qissasi", G'ofur G'ulomning "Shum bola" asarlaridan parcha, "Dunyo mo'jizalari" nomli bolalar uchun ensklopediya turkumidagi kitobdan va Mahmud Sattorning "O'zbek udumlari" nomli kitoblaridan foydalandik. Shuningdek, jurnal va kitoblardan tanlangan matnlarni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi Xudoyberdiyeva Bonugul tomonidan o'qildi.

Tajriba tahlili

Biz bu faslda o'quvchilarga mashg'ulot davomida yozgan javoblarini tahlili bilan tanishtiramiz. Birinchi mashg'ulotda o'quvchilarga Turob To'laning "Yetti zog'ora qissasi" asaridan olingan parcha ikki marta o'qib eshittirildi. O'quvchilarga matn eshittirilgach o'quvchilarning matnni qay darajada tushunganliklari tekshirildi. O'quvchi matnni to'g'ri tushungan bo'lsa, bu topshiriqni to'g'ri bajara oladi. Unda matn yuzasidan oltita gap berildi:

..... degan soyimiz bo'lardi, juda bitkuchiydi.olib chiqdim-u, birozginatersin deb boshini qo'yib yubordim. O'zimsoyasida, g'ir-g'ir shabadada mast bo'lib yotdim, nafas o'tmay uxlab qolibman. Bir mahal uyg'onsam, oftob og'ib qolgan,, mashoq qayoqda, o'sha turgan joyida hali ham bir xil holatda turipti. Hayron bo'lib o'rnimdan turdim, bir narsa demoqchiday boshini baland ko'tarib kishnadi, faqat orqa oyoqlari bilan tepkılanadi-yu, oldingi oyoqlarini yerdan uzmaydi. Yugurib oldiga bordim, bordim-u oyoqlari ostiga qarab qotib qoldim, oldingi chap oyog'iga qop-qora o'ralib yotibdi, o'ng oyog'i esa iloning boshini majaqlagancha ezib turipti.

Tushirib qoldirilgan so'zlarni topib, o'rniga qo'yish topshirig'ida matndagi so'zlarning kontekstual ma'nosi qay darajada tushunganligi aniqlandi

Bu topshiriqda retsiyentlar asosan birinchi, ikkinchi, uchinchi gaplardagi tushirib qoldirilgan so'zlarni yozishda xatolikka yo'l qo'yishgan. Birinchi gap *Matansoy degan soyimiz bo'lardi, juda bug'doy bitkuchiydi* gapi bo'lib, o'quvchilarga *Matansoy va bug'doy* so'zlari tushirib qoldirilgan holda berildi. 5-13-16-22- raqamli o'quvchilar *Matansoy* so'zini *Vatansoy* shaklida yozishgan.

4-8-10-17-19-23-25-raqamli o'quvchilar esa "*Matansoy*" so'zini "*Matinsoy*" shaklida xato yozishgan. Bunga o'quvchilarning so'zni xato eshitganliklari sabab bo'lgan. "*Bug'doy*" so'zining o'rniga 1- va 2- raqamli o'quvchilar "*soya*" so'zini ishlatishgan. 6- raqamli o'quvchi esa "*bug'doy*" so'zining o'rniga "*go'ja*" so'zini ishlatgan.

Ikkinchi gap *go'ja olib chiqdim-u, birozgina mashoq tersin deb boshini qo'yib yubordim* gapi bo'lib bu gapolib chiqdim-u, birozgina tersin deb boshini qo'yib yubordim tarzida berildi. "*go'ja*" so'zini deyarli barcha o'quvchilar to'g'ri yozishgan, faqatgina 4- raqamli o'quvchi "*ko'za*" so'zini qo'llagan. 6-13-16-23-25- raqamli o'quvchilar "*mashoq*" so'zining o'rniga hech qanday so'z yozishmagan. 8-9-21- raqamli o'quvchilar "*mashoq*" so'zining o'rniga "*bug'doy*" so'zini, 11-15-24-raqamli o'quvchilar esa "o't" so'zini qo'llashgan. Keyingi gap "*O'zim g'aram soyasida, g'ir-g'ir shabadada mast bo'lib yotdim, nafas o'tmay uxlab qolibman*" gapi bo'lib "*g'aram*" so'zi matndan tushirib qoldirilgan holda berildi. Bu so'zni hech qaysi o'quvchi eslab qola olmagan. 5-7-12-15-17-18-22-24-26- raqamli o'quvchilar esa "*g'aram*" so'zining o'rniga "*daraxt*" so'zini ishlatib xato javob yozishgan. Oxirgi gapda o'quvchilar nuqtalar o'rniga "*chipor cho'lilon*" so'zini yozishi kerak edi. Faqatgina

20-raqamli o'quvchi "*chipor ilon*" birikmasini qo'llagan.

Ikkinchi mashg'ulot G'ofur G'ulomning "Shum bola" nomli qissasidan olingan parcha asosida tashkil qilinib, 2 ta topshiriqdan iborat bo'ldi. 5 ta gapli matn tanlab olindi va ulardan ayrim so'zlar tushirib qoldirildi.

1. ...Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan.
2. Uning ming tanoblab hisoblangan olma-zoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan.
3. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim.
4. Uzunmenga yo'l boshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi.
5. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar tushirib qoldirildi va o'quvchilar bu so'zlarni yozishlari kerak edi. Birinchi gapdagi tushirib qoldirilgan so'zni aksariyat o'quvchilar to'g'ri yozishgan. Faqatgina 5-10-12- raqamli o'quvchilar "*Sariboy bo'lis*" so'zini "*Sariboy*" tarzida yozishgan. 9- raqamli o'quvchi esa "*Sariboy oqsoqol*" tarzida yozgan. Ikkinchi gapdagi tushirib qoldirilgan "*ming tanoblab*" so'zi ham deyarli barcha o'quvchilar to'g'ri yozishgan. 3-raqamli o'quvchi "*ming tanob*" 4- raqamli o'quvchi "*ming tanobli*" va 6-raqamli o'quvchi "*ming tanoblar*" shakllarini qo'llagan. Uchinchi gapda

nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan so'z "qo'shxona" so'zi edi va bu so'zni 10- va 13-raqamli o'quvchilar "yotoqxona" tarzida yozishgan. Bunday qo'llashlariga sabab o'quvchilar so'zni eslab qolisha olmagan va nuqtalardan va gapning kontekstual ma'nosiga qarab shunday javob yozishgan. 11-raqamli o'quvchi "xonada" so'zini qo'llagan. To'rtinchi gapda tushirib qoldirilgan so'zni aksariyat o'quvchilar eslab qola olishmagan, natijada 3-6-8-9-10-11-13-raqamli o'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqqan holda "uzumchi" so'zining o'rniga "xizmatkor" so'zini qo'llagan. Beshinchi gapda tushirib qoldirilgan birinchi so'z "yigirma choq" so'zini faqat 13-raqamli o'quvchi yozmagan, qolgan o'quvchilar esa ikki xil ko'rinishda yozishgan, ya'ni 1-2-4-5-7-10-12-raqamli retsiptiyentlar "yigirma choq" o'rniga "20 ta" va 3-6-8-9-11-raqamli retsiptiyentlar esa "20 chandon"

Tarzida javob yozishgan. Lekin o'quvchilar xizmatkorlar sonini eslab qolishgan. Nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan oxirgi so'z "juvari go'ja" so'zi bo'lib hech qaysi o'quvchi "juvari go'ja" tarzida javob berishmagan. 13 ta o'quvchidan 10 ta o'quvchi "go'ja" tarzida javob yozishgan. 10-raqamli o'quvchi "yotoq" tarzida xato javob yozgan. 11-raqamli o'quvchi "qozongo'ja" tarzida javob yozgan.

Ikkinchi topshiriqda matndagi gaplarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash topshirig'i berilgan bo'lib, o'quvchilar berilgan jadvaldagi gaplarni eshitgan matni asosida to'g'ri yoki xato ekanligini belgilashdi.

Bu qishloqda Sariboy oqsoqol degan katta yer egasi bor ekan. -	Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. +
Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. +	Uning ming tanoblab hisoblangan olchazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. -
Uzumchi menga yo'lboshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. +	Xizmatkor menga yo'lboshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. -
Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. +	Bitta bo'sh sopol tovoqqa ikki cho'mich go'ja quyib berdilar. -
Boshimga yumshoq par yostiqlik qo'yib rohat-rohat uyquga ketdim. -	Boshimga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiqlik qilib rohat-rohat uyquga ketdim. +

Birinchi gapda 3- va 10-raqamli o'quvchilar xato javobni belgilashgan.

Ikkinchi gapda esa 3-8-9-raqamli o'quvchilar xato javobni belgilashgan.

Uchinchi gapda 3-6-8-9-11-13-raqamli o'quvchilar xato javobni belgilashgan. Chunki aynan shu o'quvchilar matn yuzasidan berilgan birinchi topshiriqda "uzumchi" so'zining o'rniga "xizmatkor" so'zini qo'llagan edi. To'rtinchi gapda 3-8-9-raqamli o'quvchilar xato javobni belgilashgan. Beshinchi gapda

3-10-raqamli o'quvchilar xato javobni belgilashgan. Bunda "olma o'raydigan yog'och qirindisi" birikmasi "yumshoq par yostiqlik" birikmasiga almashtirilgan edi. Natijada ikkita o'quvchi xato javobni belgilashgan.

Uchinchi mashg'ulotimizda o'quvchilarga "Gulxan" bolalar jurnalidan olingan "Gugurt qanday paydo bo'lgan?" nomli matn eshittirildi. O'quvchilar matnni ikki marta eshitishdi va matn yuzasidan savollarga javob berishdi.

1. Gugurtni dastlab kim ixtiro qilgan?
2. Gugurt nechanchi yilda ixtiro qilingan?
3. Gugurtni ixtiro qilganda u necha yoshda edi?
4. Gugurtning cho'pi faqat qaysi daraxtdan tayyorlanadi va nima uchun?

5. Hozirgi vaqtda yonganida o'zidan necha darajagacha issiqlik chiqaruvchi gugurtlar bor?

6. Bunday gugurtlardan qanday maqsadda foydalaniladi?

7. Ovchilarga mo'ljallab chiqarilgan gugurtlar qanday xususiyatga ega?

8. Gugurt uchun ishlatiladigan tuzning nomi?

Birinchi savolning javobini o'quvchilar turli xil ko'rinishda, ya'ni eshitganlari kabi yozishgan. Javob Shari Soria tarzida yozilishi kerak edi. Quyida ularni keltirib o'tamiz:

Soria

Sharea Soiya

Cares Sorya

Saris Soria

Soria

Sharel Soria

Shares Soriya

Shari Soriya

Soria

Sharens

Sharel Soria

Shari Soriya

Sharis Soriya

Ikkinchi savolga o'quvchilar 1831-javobini yozishlari kerak edi. Faqat 1-raqamli o'quvchigina 1931 javobini yozgan. Qolgan o'quvchilar to'g'ri javob berishgan.

Uchinchi savolga hamma o'quvchilar to'g'ri javob berishgan. To'rtinchi savolga o'quvchilar "tog' terak" javobini berishlari kerak edi. 2-11-raqamli o'quvchilar "Oqterak" tarzida javob berishgan. Beshinchi savolga hamma o'quvchilar to'g'ri javob berishgan. Oltinchi savolga 1-6-11-raqamli o'quvchilar mutlaqo javob berishmagan. Ular javobni eslab qolisha olmagan. 3-raqamli o'quvchi "metal va telefon simlarini eritishda", 4-13-raqamli o'quvchi "telefon simlarini ulashda"

5-10-raqamli o'quvchi "uzilgan kabellarni ulasa bo'ladi va boshqalar", 7-raqamli o'quvchi "telefon simlarini yopishtirish, metalni yopishtirish" 8-9-raqamli o'quvchi "kabel uzilsa yopishtirib qo'ysa bo'ladi", 12-raqamli o'quvchi "metal va telefon simlarini ulash" kabi javoblar yozishgan. Stimul matnida esa bunday yozilgan edi: "Bunday gugurtlar bilan hatto metallarni "jumladan" uzilgan telefon kabellarini osongina payvandlasa bo'ladi". Bu javoblardan ko'rinadi-ki, o'quvchilar so'zni eslab qolmasa ham, gapning mazmunini tushunishgan va shu mazmun asosida so'z tanlagan. Chunki payvandlash so'zining o'rniga "ulash", "yopishtirish" kabi so'zlarini qo'llashgan. Yettinchi savolga o'quvchilarning aksariyati to'g'ri javob berishgan. Asl matnda "sharros yomg'ir quyayotganda, shuningdek, qattiq shamolda ham yonaveradi" gapi keltirilgan bo'lib, 3-raqamli o'quvchi "yomg'irda va shamolda o'chib qolmaydi" tarzida, 8-9-raqamli o'quvchilar esa "u yomg'ir yog'sa ham yonib turadi" kabi javoblar berishgan va bu javoblar to'g'ri javobga yaqin. Sakkizinchi savolga o'quvchilardan gugurt uchun ishlatiladigan tuzning nomi so'ralganda ular quyidagicha javob berishgan:

5-6-10-raqamli o'quvchi javob yozishmagan. 8-raqamli o'quvchi "oq fosforit" deb javob yozgan. Qolgan o'quvchilar esa "Bertole" so'zini "bertuls", "bertoliy" "bertoliya", "vertalin" "bertoli" tarzida yozishgan.

To'rtinchi mashg'ulotimiz "Dunyo mo'jizalari" kitobidan olingan "Qo'lda barpo etilgan mo'jizalar" nomli matn asosida tashkil etildi. Topshiriq ikki qismdan iborat bo'lib, topshiriqlar nuqtalar o'rniga so'zlarni to'g'ri qo'llay olish, savol-javob kabi vazifalardan iborat bo'ldi. Birinchi topshiriqda 5 ta gap tanlab olindi, gaplardagi ayrim so'zlar tushirib qoldirildi. O'quvchilarga gaplarni to'ldirish vazifasi aytiladi. Birinchi gapda nuqtalar o'rniga

qo'yilishi kerak bo'lgan so'z "yovvoyi insonlar" so'zi bo'lib aksariyat o'quvchilar to'g'ri javob yozishgan. Faqat o'quvchilar tomonidan "insonlar" so'zining sinonimlarini qo'llash holatlari kuzatildi. 5-raqamli o'quvchi "insonlar" so'zining o'rniga "xalq" so'zini va 6-11-13-raqamli o'quvchilar esa bu so'zning o'rniga "odamlar" so'zini qo'llagan. Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi gaplardagi qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni deyarli barcha barcha o'quvchilar to'g'ri qo'yishgan. Topshiriqning ikkinchi qismida berilgan savollarga o'quvchilar quyidagicha javob berishgan. Birinchi savolga o'quvchilar "rentgen yo'nalishidagi rasmlar" javobini berishlari kerak edi. 4-5-11-12-raqamli o'quvchilar bu savolga to'g'ri javob berishgan. Qolgan o'quvchilar esa "erkin mavzuda chizilgan" deya xato javob berishgan. Ikkinchi savolga 5-6-raqamli o'quvchilar xato javob berishgan. Ya'ni "o'z avlodi deb hisoblagan insonlar va hayvonlar" deb emas "hayvon tanalari" va "avstraliya qahramoni" kabi javoblar berishgan. 4-savol "Aqlli boomerang quroli qaysi mehnat quroliga o'xshash" savoli bo'lib, bu savolga ham aksariyat o'quvchilar to'g'ri javob berishgan. 5-10-raqamli o'quvchilar umuman javob yozishmagan, 11-raqamli o'quvchi esa "kamon o'qiga" deya xato javob bergan.

Beshinchi mashg'ulotimiz ham "Dunyo mo'jizalari" kitobidan olingan "Sirli sanamlar oroli" nomli matn asosida tuzildi. Topshiriq ikki qismdan iborat bo'lib, nuqtalar o'rniga so'zlarni to'g'ri qo'llay olish va gaplarni davom ettiring kabi vazifalar berildi. Birinchi qismda 5 ta gap tanlab olindi. 1-2- gaplarni barcha o'quvchilar to'g'ri to'ldirishgan. Uchinchi gapda o'quvchilar "pasxa" bayrami nomini yozishlari kerak edi. 1-6-8-raqamli o'quvchi "Paskal" deb xato javob yozgan. To'rtinchi gapni 5-6-raqamli o'quvchilar matn mazmuni asosida to'ldirishgan va aynan to'g'ri javobni yozishmagan. Ya'ni haykallarning asosan kalla qismi yasalgan bo'lib 5-raqamli o'quvchi "kallalar" so'zini o'rniga "haykallar" so'zini ishlatgan. 6-raqamli o'quvchi esa "tosh haykallar" so'zining o'rniga "qoya toshlar" so'zini qo'llagan. 5-gapda nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan so'z "Orolida yashovchi yovvoyilar" so'zi bo'lib, 1-3-5-8-13-raqamli o'quvchilar to'g'ri javob berishgan. Qolgan o'quvchilar esa "uzoq vaqt mobaynida" deya xato javobni yozishgan. Ikkinchi topshiriqni aksariyat o'quvchilar to'g'ri bajarishgan.

Oltinchi mashg'ulotimiz "O'zbek xalq udumlari" kitobidan olingan tancha-sandal haqidagi matn bo'lib o'quvchilarga quyidagi 10ta savol berildi:

1. O't-olov bilan bog'liq qadimiy odatlardan biri qaysi?
2. Yevropa va slavyan xalqlarida bu odat bilan ataladi?
3. Ajdodlarimiz yashagan uylar qanday bo'lmalardan tashkil topgan?
4. Olov tayyorlash borasida evi yo'q kishi yo bolalarga atab qanday maqol ishlatilgan?
5. Tashqarida qor-yomg'ir yog'ib turganda, qattiq shamol esayotganda, toza olov – cho'g' tayyorlab beradigan maxsus xonaga nima deyilgan?
6. Sandal uydin odatda kimlar o'rin olishgan?
7. Nima uchun tancha somonli loy bilan suvalgan?
8. Sandal nima?
9. Odatda sandal uyni qaysi qismida o'rnatilgan?
10. Sandal atrofida kim qanday o'rinda o'tirgan?

Birinchi savolga deyarli barcha o'quvchilar to'g'ri javob yozishgan, faqatgina 4-5-6-raqamli o'quvchilar tancha qismini yozishib, sandal qismini yozishmagan. 2-savolga 6-10-raqamli o'quvchilar umuman javob yozishmagan. Ayrim o'quvchilar esa kamin so'zini xato yozishgan. Misol uchun, "kamel", "kamit", "komer" tarzida.

3-savolga 2-3-6-8-raqamli o'quvchilar javob yozishmagan. 1-2-13-raqamli o'quvchilar uyni ikkita "qora uy" va "yemakxona" qismini yozishgan. Qolgan o'quvchilar esa to'liq javob yozishgan. 4-savolga yozilishi so'ralgan maqolni hamma o'quvchilar to'g'ri yozishgan. 5-savolga 1-13-raqamli o'quvchilar "qora uy" so'zini o'rniga "qoraxona" so'zini

qo'llashgan. 6- savolga o'quvchilar *"keksalar, bemorlar, yosh bolali onalar"* javobini yozishlari kerak edi. O'quvchilar keksalar so'zini o'rniga kattalar so'zini, "bemorlar" so'zini o'rniga "kasallar" so'zini qo'llash holatlari kuzatilgan. 7-8-9-10-savollarni o'quvchilar to'g'ri tushunishgan va deyarli hamma o'quvchilar to'g'ri javob yozishgan.

Yettinchi mashg'ulotimiz "O'zbek xalq udumlari" kitobidan olingan irimlar haqidagi matn bo'lib o'quvchilarga quyidagi 10ta savol berildi. Savollarga o'quvchilar o'z hayotidan emas, balki matn asosida javob berishlari kerak edi.

1. Ertalab ishga otlandingiz, dastro'molingiz yodingizdan chiqib qolganini bilib qoldingiz nima qilasisiz?

2. Uyda qaychining jag'i ochilib qolibdi, irim qilib darhol yopib qo'yasiz. Nima uchun?

3. O'zbeklar biror yerga safarga chiqadigan bo'lsa, oldin hovli supurilib, tozalangandan so'ng chiqishadi. Nima uchun?

4. Kosiblar, ustalar, chevarlar o'z mahsulotlarining biror arzimasi yerini chala qoldiradilar, Bu bilan nima deyishadi?

5. Qadimgilar bir kunda qo'l-oyoqning tirnog'ini baravar olishmagan. Ular nima uchun shunday qilishgan?

6. Qaysi kunlari yo'lga, safarga chiqilmaydi?

7. Biror a'zorida kamchiligi bo'lgan bolalar tug'lsa qanday ism qo'yishgan?

8. Chap ko'zingiz uchsava o'ng ko'zingiz uchsa nima deb o'ylaysiz?

9. Hozirgi yoshlar qaysi raqamni baxtsizlik keltiradi deb bilishadi?

10. Imtihonlarga qanday poyafzal kiyib borishadi?

Ushbu matnni o'quvchilar juda yaxshi tushunishgan. Chunki bu irimlarga biz kundalik hayotimizda ham duch kelamiz. O'quvchilar uchun notanish ma'lumotlar bo'lmagani uchun ham o'quvchilar bu savollarga deyarli to'g'ri javob yozishgan. 2-savolga 10- raqamli o'quvchi janjal bo'lmasligi uchun deb emas *"ota-ona janjal qilmasligi uchun"* deya javob bergan. 5-savolga 4-raqamli o'quvchi "har kuni aza bo'lmaslik uchun deya javob bergan. Stimul matnda esa "ham to'y, ham aza bir kunda bo'lmasligi uchun" deya berilgan edi. 6-savolga *"chorshanba, shanba"* kunlarini javob sifat yozish kerak edi. 6-11-raqamli o'quvchilar "chorshanba", 12-raqamli o'quvchi esa "shanba" javobini yozishgan, 1-4-10-raqamli o'quvchilar esa "payshanba" javobini yozib mutlaqo xato javob yozishgan. 7-raqamli o'quvchi 8-savolga "safarga chiqadi" deya xato javob bergan.

Sakkizinchi mashg'ulotimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" nomli sarguzasht romani asosida tashkil etildi. Mashg'ulot 3 bosqichda o'tkazilib, birinchi topshiriqda gaplarni "to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilash vazifasi aytili.

Quyidagi gaplarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tasdiqlang

Meni qishlog'imizdagi jamiki o'g'il bolalar yomon ko'rishadi, shuning uchun ham menga "besh bolali yigitcha" deb laqab qo'yishgan.

Beshoviniyam o'zim katta qilganman, otam traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasiyu kunduzi dalada.

Aytgandek, sizga gapirib bermadim shekilli, bizning qishloqni Afandi qishloq deyishadi.

Soy mahalladagi o'zim bilan birga o'qiydigan Maqsud sallani ham, Qibla mahalladagi Orif mallaniyam og'iz ochtirmay qo'yaman.

—Kir

yuvishing-chi?

—

Yolg'on!

—

Sigir

sog'ishing-chi?

—

Hozir

boshingga

kesak

bilan

tushiraman!

— Qo'lingga xina-yu, boshingga o'sma qo'yishing ham yolg'onmi? - deb Akrom bilag'on qiqirlab kulayotgan edi, yonimdagi turgan kesakni olib otgan edim, essizgina, mo'ljalni sal noto'g'ri olib qo'ygan ekanman, qulog'ining yonidan zuvillab o'tib ketdi.

Bolalar meni nega yomon ko‘rishlarini aytsam, ular men tufayli yo opasidan, yo otasidan dakki eshitadi.

Sulton endigina o‘n birga kirdi, Zulayho o‘n ikkiga, biz hali hammamiz ham bir-birimizdan bir yoshdan farq qilarniz.

Ikkinchi topshiriqda quyidagi jadvalni to‘ldirish vazifasi berildi.

	fe‘ldor, ko‘ngli xushlasa, eshakday ishlaydi, xushlamasa yana o‘sha eshakka o‘xshab, to‘rt oyog‘ini bir joyga tirab turaveradi
	o‘zim ataylab ishni kam buyuraman, qiz bolalar nimjon bo‘lishadi, nimjon bo‘lgandan keyin ularni ehtiyot qilish kerak deb o‘ylayman.
Usmon	
	Endigina besh yoshga kirgan. Ovqat so‘ragani-so‘ragan.
Robiya	

Uchinchi topshiriqda savollar berildi.

Asar bosh qahramonining ismi?

Ular oilada necha kishi edi?

Qaysi ukasi rasm ko‘p chizar edi?

Akrom bilag‘on asar qahramoniga nima deb murojaat etadi?

Asarda qanday mahalla nomlari keltirilgan?

Birinchi savol chalg‘ituvchi savol bo‘lib, asar qahramoniga bolalar “ besh bolalali yigitcha” deb emas, balki “besh bolali” deb laqab qo‘yishgan edi. Faqat 3-raqamli o‘quvchigina to‘g‘ri javob bergan. Ikkinchi gapni 4-5-6-12-raqamli o‘quvchilar to‘g‘ri deya belgilashib , xato javob berishgan. Aslida bolaning otasi emas opasi traktorchi edi. 3-gapni faqatgina 5-raqamli o‘quvchi xato sifatida belgilagan. Lekin gap to‘g‘ri edi. 4-gapda noto‘g‘ri ma‘lumotlar berilgan, ya‘ni asar qahramonlari nomi o‘zgartirib berilgan edi. 1-2-5-7-8-9-10-11-13-raqamli o‘quvchilar bu savolni javobini to‘g‘ri topishgan. 5-gapda ham xato ma‘lumot berilgan bo‘lib, o‘quvchilar gapni xato ekanligini topishlari kerak edi. 3-4-6-12- raqamli o‘quvchilargina bu savolga noto‘g‘ri javob berishgan. 6-gapda faqat 12-raqamli o‘quvchi xato qilgan. 7-gapda bolalarning yoshi almashtirib berilgan edi. 4-8-12- raqamli o‘quvchilar bu gapni to‘g‘ri deb o‘ylashgan va xato javob berishgan.

2-3- toshiriqni deyarli barcha o‘quvchilar to‘g‘ri tushunishgan va to‘g‘javob berishgan. Akrom bilag‘on asar qahramoniga nima deb murojaat etadi? Ushbu savolga faqatgina bir o‘quvchi oyimqiz deya javob bergan bo‘lsa, qolgan o‘quvchilar “qiz bola” deya javob bergan. Ya‘ni asar qahramonini qiz bolaga o‘xshatgani uchun ham shunday javob bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 6-sinf o‘quvchilari uchun adabiyot darslik. Toshkent “ Ma’naviyat”, 2009.30-bet
2. 6-sinf o‘quvchilari uchun adabiyot darslik. Toshkent “Ma’naviyat”, 2017.15-16-bet
3. Bolalar uchun ensklopediya “Dunyo mo‘jizalari” . Toshkent “Davr nashriyoti” 2014, 82-85-betlar
4. “Gulxan” jurnali. 2020-y aprel soni.
5. Mahmud Sattor. “O‘zbek udumlari” Toshkent “Cho‘lpon”, 2016. 80-81, 146-149-betlar
6. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Besh bolali yigitcha” Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2009. 10-13-betlar